

Ona yurting - oltin beshiging

# TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

2006-yil 20 - 26 mart N:12 (66553)

## Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va  
axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq  
Ta'limi Vazirligi,  
«KAMOLOT» Yoshlar  
Ijtimoiy Harakati,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» Hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro  
xayriya jam'armasi.



## KATTAKON RAHMATI!

Buva va buvijonim Farg'ona viloyatining so'lim Marg'ilon shahrida yashashadi. Biz ularni ko'rgani tez-tez borib turamiz. Avvallari baland tog' bag'ridagi yo'llardan yurardik. Kattalar u yoqda tursin, hatto biz bolalar ham mashinada yurak hovuchlab o'tirardik. Shundanmi, juda charchab, horib qaytardik.

Hozir esa yo'llar tekislanib, asfalt qilinibdi. Baland tog' orasida chiroqlar o'rnatilgan keng va ravon ikkita tunel yo'li ochilibdi. Uni «Qamchiq davoni» deb nomlashibdi. Dadamning aytishlaricha, bu keng, tekis va ravon yo'l yurtboshimiz tashabbuslari bilan qurilibdi.

Yaqinda ana shu yo'ldan yurib, Marg'ilonga borib keldik. Charchash u yoqda tursin, tabiat manzaralarini, baland tog'lar-u, zilol suvlarni tomosha qilib, uyga qanday yetib kelganimizni ham sezmay qolibmiz.

Buning uchun yurt egalari - ota-onalarimizga kattakon rahmat!

Gulira'no OBIDOVA,

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi  
17 - maktabning 4 - «B» sinf o'quvchisi.

## KO'K DALAM, KO'M-KO'K DALAM...

Ko'k dalam, ko'm-ko'k dalam,  
Sen nimani sog'inding?  
Dildor bo'lgan dillarning,  
Dushvorligi kerakmi?  
Sho'x sayragan bulbulning,  
Xushholligi kerakmi?

Bahor kuyin kuylagan,  
Maynani sog'indingmi?  
Bag'ringda erkalangan,  
Maysani sog'indingmi?  
Quyosh suyub uyg'otgan,  
Daraxt kurtak ochsinmi?  
Ayoqli izz'irinlar,  
Olislarga qochsinmi?  
Ko'k dalam, ko'm-ko'k dalam,  
Navro'zoying keladi.  
Senga rohat baxsh etib,  
Mayin epkin yeladi.  
Bahoroy mehriboning,  
Seni xushnud aylagay,  
Qirlarda qirmiz lola,  
Gilamlarin shaylagay.  
Ko'k dalam, ko'm-ko'k dalam,  
Bahorni sog'indingmi?..



Mohinurbonu YUSUPOVA,  
Alisher Navoiy nomidagi Respublika  
Nafis san'at litseyining 7 - sinf o'quvchisi.

## ERTANING YULDUZLARI

Farg'ona viloyati, Beshariq tumani xalq ta'limi tasarrufidagi I-Iqtidorli bolalar bog'chamaktab majmuasi Beshariq shahrining markazidagi zamonaviy binoda joylashgan. Majmua 1968-yilda qurilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatgan. 1994-yildan boshlab bog'chamaktab majmuasiga aylantirilgan.

I-Iqtidorli bolalar bog'cha-540 nafar bolalar ta'lim olib 175 nafari bog'cha yoshidagi o'quvchilarni tashkil etadi. guruh, maktabda (1-9-sinflar) ko'rsatib, bolajonlarga yuqori ta'lim-tarbiya berib o'zining "Uchinchi ming yillik asosidagi mualliflik Maskanda bolalar bilan alohida e'tibor berilgan. to'garaklar orqali ham Bolalarni jismonan ham e'tibor berilgan. Jumladan, bolalarni ko'rsatkichlari har a s o s a n ishlari olib borilmoqda. to'garagi tashkil qobiliyatlariga ko'ra

### ORZU

Sochlarimda tolpopuk,  
Kaftimda minglab yulduz.  
Manglayimda to'lin oy,  
Hayotim porloq yulduz.

Teran boqdim atrofga,  
Bag'rim to'la qizil gul.  
Orzularim bir dunyo,  
Ushalyapti har tugul.

Olislarda nigohim,  
Sarhadlari keng xayol.  
Orzularim bo'y cho'zar,  
Bo'lmaydi sira uvol.

Shahnoza  
ABDURAHIMOVA,  
shu maktab o'quvchisi.

maktab jamoasida jami kelmoqda. Shulardan bolalarni, 365 nafari Bog'chada jami 7 ta 13 ta sinf faoliyat malakali mutaxassislar kelishmoqda. Majmua bolasi" tayanch dasturi dasturiga ega.

yakka tartibda ishlashga ham Ular nafaqat darslarda, balki bilimlarini oshirishlari mumkin. sog'lom qilib rivojlantirishga

o'sish va rivojlanish chorakda o'lchanib, shunga sog'lomlashtirish va rivojlantirish "Sog'lomjon-polvonjon" sport qilingan bo'lib, unga qiziqish va bolalar jalb qilingan.

Majmuada bolalar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish bo'yicha ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlarni amalga oshirish oila bilan chambarchas bog'liq holda olib boriladi. Chunki ilk ma'naviy qadriyatlar asoslari oilada tarkib topadi-da. Majmuadagi ta'lim-tarbiyaning bosh maqsadi jismonan sog'lom, aqlan yetuk, ma'naviyati boy, erkin fikrlay oladigan barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Shu sababli majmua rahbari Shoira Borataliyeva «Ota-onalar bilan ishlash» masalalariga alohida e'tibor qaratadi. «Ota-onalar universiteti» faoliyatini yaxshilab, mahalla qoshida «ota-onalar uchun o'quv mashg'ulotlari»ni tashkil etib, bolalar tarbiyasining har tomonlama rivojlanishiga katta yordam berib kelmoqda.

Bolajonlar ongiga milliy g'oyani singdirishdan maqsad, ular qalbida sevish va faxrlanish, g'ururlanish tuyg'ularini uyg'otishdan iboratdir. Chunki milliy g'oya xalqning milliy qadriyatlari, urf-odatlari, tili va diniga asoslangan bo'ladi. Bunday yoshlar milliy qadriyatlarni e'zozlaydilar, ularga sodiq bo'lib, Konstitutsiya va Vatanimiz ramzlarini hurmat qiladilar.

Jumagul XOLMIRZAYEVA.

## BALANDROQ UCH, VARRAGIM!

Kuni kecha ko'klamoyning sharofati bilan yanada ko'rkamlashib, yashillikka burkangan Chirchiq shahri varraksevar bolajonlarni o'z bag'riga chorladi. Jaloliddin Manguberdi nomli sport majmuasida yurtimizning 12 ta viloyatidan kelgan varrakchi bolajonlarning ikki kunlik respublika birinchiligi o'tkazildi. Barcha ishtirokchilar g'oliblik uchun ancha ter to'kishdi. Ammo shoxsupadagi o'rinar sanoqli bo'lgani uchun ham eng saralarini tanlash lozim edi. Ona tabiat ham bolajonlarning quvonchiga sherik bo'layotgandek, quyoshning iliq taftini, mayin shabbodasini ayamadi. Bu esa varrakchilarimizga ancha qo'l keldi. Bir-biridan o'taman deyaotgandek, osmonga ko'tarilgan

turfa rang va shakldagi yelimli, kartonli va laylak varraklar havoda oqqushlardek suzishardi. Musobaqa qizigandan qizidi. Navro'z haqidagi kuy-qo'shiqlar saylga yanada jo'shqinlik bag'ishlashdi.

Eng balandga varrak uchirishda jamoa hisobida toshkentlik yosh sportchilar 2537 hisob bilan 1-o'rinni egalladilar. 2-o'rinni 2339 hisobda surxondaryolik o'quvchilar, 3-o'rinni esa 2141 ochko bilan buxorolik o'quvchilar band etishdi.

Said VALIYEV,

«Vatanparvar» Markaziy kengashi targ'ibot ishlari bosh mutaxassisi.



## AJOYIB UCHISH

Kichikligimdan juda xayolparast, ta'sirchan va tortinchoq bola bo'lganman. Xayol surishni, osmondagi pag'a-pag'a bulutlarni tomosha qilishni yoqtirardim. Nazarimda daraxtlar o'zaro nimalarnidir shivirlayotgandek, bulutlar esa meni o'zlari tomon imlab chaqirishayotgandek bo'laverardi. Eng asosiysi, men uchishni juda xohlardim. Qo'llarimni yoysam-u, qushlar kabi uzoq-uzoq o'lkalarga uchib ket sam derdim. Shularni o'ylab yotib bir kuni uxlab qolibman. Tushimda oppoq ko'ylakli bir qizcha meni yoniga imlab chaqirayotganmish. Avvaliga qo'rqdim, keyin salgina dadillanib, uning qo'llaridan tutdim. Biz birgalikda ko'klarga parvoz qila boshladik. O'sha damlarda mendan baxtiyor odam yo'q edi. Biz uzoq uchdik, uyan uzoqlashib ketayotganimizni o'ylagan zahotim hamrohim meni uyimning oldiga olib keldi. Birdaniga uyg'onib ketdim. Ruhim ancha tetiklashgan, o'zimni juda yengil his qilardim. Xullas, o'ngimda yetmagan orzuimga tushimda yetishdim.

Xayol surish baribir yaxshi-da...

Mohira SALIMOVA,

Sobir Rahimov tumanidagi

249-o'rta maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi.

Yozing, yoziling!

## DAVRAMIZGA QO'SHILING

Hammamiz yaxshi bilamizki, bahor - bu uyg'onish, yasharish, yangilanish faslidir. Bu faslda boshimiz bayramlardan chiqmaydi desam, mubolag'a qilmagan bo'laman. Yaqinginda onajonlarimiz ayyomini katta tantana qilgan diyorumizda ertaga yana bayram. Mehr-muruvvat, to'kinlik bayrami bo'lmish Navro'zi olamni qarshi olamiz.

Biz - «International - houze» litseyi o'quvchilari ham har yili Navro'z ayyomini o'zgacha bir ruhda nishonlashga harakat qilamiz. Litseyimiz direktori Elmira opa Ibragimova: «Bunday tantanalarni, milliy an'analarni hurmat qilmagan inson - haqiqiy yurt farzandi bo'lishga noloyiqdir. Uni bayram qilibgina qolmay, xayrli, savobli ishlarni ham amalga oshirish lozim», deydilar.

Har yili litseyimiz hovlisida o'zimiz tayyorlagan sumalak, turli shirinliklar, ko'k somsa, chuchvara-yu chakchaklar bilan to'kin dasturxon bezatamiz. Doshqozonda osh damlab, mahalla ahliga osh tarqatamiz. Kuy va qo'shiqlarimiz bilan o'zimizni ham, mehmonlarimizni ham xushnud etishga harakat qilamiz.

Xullas, bayramimiz juda ajoyib o'tadi. Ishonmasangiz, ertaga litseyimizga keling, aziz mehmonimiz bo'lib, quvonchimizga oshno tutining.

Nodira SAGATOVA,  
«International - houze»  
litseyining  
II - sinf o'quvchisi.



## USTOZ, SIZNI YAXSHI KO'RAMIZ

4-sinfni tugatib, 5-sinfga ko'chganimizda ona tili va adabiyot fanidan bizga erkak o'qituvchi saboq bera boshladilar. Shu paytgacha faqat ayol muallimlar dars berishardi. Dastlabki saboq jarayonlarida negadir ularni xushlamadim. Bir kuni sinfimizga 6-sinf o'quvchilari kirib keldilar-da, ushbu fandan saboq berayotgan o'qituvchimiz bilan xuddi ota-boladek suhbatlashib ketdilar: «Ustoz, nega bu yil bizga boshqa muallim saboq berayapti? O'zingiz dars o'tsangiz bo'lmaydimi?» Bolalarning so'z ohangidagi mehrni ko'rib, o'z fikrimdan uyali ketdim. Demak, ustoz kuchli bilim sohibi ekanlar-da. Shu bois ham hech kim darslarni qoldirmas, birorta o'quvchi kechikib kirmasdi. Hammaning uy vazifasi tayyorlangan bo'lardi. Ular yangi dars o'tayotganlarida butun vujudimizni quloqqa aylantirib, qunt bilan eshitamiz. Chunki darslikda yo'q narsalarni ham aytib, fikrimizni yanada boyitadilar. Orada tushunmagan so'zlarimizni ham tushuntirib ketadilar. Saboq jarayonida bugungi dars kechagiga o'xshagan holatda o'tilishidan barchamiz mamnun bo'lardik. Keyin bilsam, ustozimiz Mahmud aka Nazarov filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Alisher Navoiy nomli Til va adabiyot ilmiy tekshirish institutining katta ilmiy xodimi vazifasida ishlar ekanlar. Dars o'tayotganlarida mavzuga oid darslikdan tashqari adabiyotlardan ham foydalanar, bergan har qanday savolimizning javobini puxta tushuntiradilar. Bir so'z bilan aytganda, sevimli ustozimizga qattiq bog'lanib qolganmiz.

Qaniydi, boshqa fanlardan ham shunday kuchli muallimlar saboq berishsa...

Nozima JO'RAYEVA,

Shayxontohur tumanidagi

30-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi.

# BAHORONING ERKASI NAVRO'ZI

Aziz bolajonlar, ko'zlarimizni quvnatib, dillarimizni kuylatib fasllar kelinchagi Bahoroy kirib keldi yurtimizga. U qator bayramlarni, farahbaxsh kunlarni yetaklab keldi.

Kechagina bahor va baxt bayrami bo'lmish munis Onajonlarimiz, opa-singillarimiz kunini tantana qilgandik. Bugun esa Navro'zi olamning gul-chechakka burkangan yo'llariga peshvoz chiqishga chog'lanyapmiz.

Shunday quvonchli kunlarda sho'rolar tuzumi davrida quvg'inga uchrab, mustaqilligimiz sharofati bilan yana yurtimizga qaytgan milliy bayramlarimizdan biri - Navro'zning kelib chiqishi, tarixi haqida yanada ko'proq bilgimiz keldi. Shu maqsadda ayrim tengdoshlaringizning bu xususda bilganlari, eshitganlari, yozganlari bilan o'rtoqlashdik va ularni Sizning ham e'tiboringizga havola qilishga chog'landik.



Madina SAYIDMURODOVA,

Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 5 - ixtisoslashgan maktabning 8 - sinf o'quvchisi:

## QUYOSH TURGUNCHA BARQAROR BO'LSIN!

Milliy qadriyatlarimizning eng go'zal namunalari bo'lmish Navro'zning kelib chiqishi aslida juda boy tarixga ega. Tarixchi olimlarimiz uni nomlari afsonaga aylanib ketgan shohlar - Kayumars, Jamshid, Siyovush bilan bog'lashadi.

Oftobning ikki aylanishi mavjud. Ulardan biri quyidagicha: Oftob har uch yuz oltmish besh kecha-kunduzning to'rtidan birida Hamal burjining birinchi daqiqasida chiqib ketgan paytining o'zida yana qaytib keladi va har yili bu davr kamaya boradi.


Oллоh o'n ikkita farishta yaratdi. Ulardan to'rttasini ahramonlardan qo'riqlash uchun osmonga yubordi. Yana to'rttasini ahramonlarni Qof (hozirgi Kavkaz) tog'idan o'tkazmaslik uchun jahonning to'rt burchagiga yuboradi. To'rtta farishtaga esa yerda yurib, ahramonlarni haydab turishini buyuradi. Fors podshohlari har kim bu kunni topa olmasligini hisobga olib, uni belgilab qo'yдилar, bayram joriy etдилar va hamma bu sanaga rioya qilsin degan maqsadda barchaga ma'lum qiladilar. Katta yilning to'rt bo'lagi o'tganda katta Navro'z bo'ladi va dunyoning holati yangilanadi.

Podshohlarning bir odati bo'lgan: yil boshida ular yaxshilikka fatvo berishlari va sanalarni belgilashlari hamda maishat uchun marosimlar o'tkazishlari zarur bo'lgan. Kimki Navro'z kuni bayram qilib quvonsa, keyingi Navro'zgacha xurram bo'ladi va farog'atda yashaydi. Fors podshohi Jamshid bu kunda bayram tashkil qildi va unga «Navro'z» deb nom berdi. Quyosh turguncha Navro'z ham barqaror bo'lsin, deya buyurdi.

### HIDOYAT:

Bir odam bug'doy yeb qo'ygan va shuning uchun uni behisht (jannat)dan haydaganlar. Oллоh taolo unga bug'doyini ovqat deb belgiladi. Ammo u bug'doydan qancha yemasin, to'yimas edi. Shuning uchun u Oллоh taolodan iltijolar qildi va u arpa yubordi. Undan non qilib yegach to'ydi. Shundan keyin u agar yashil va barra arpani ko'rsa, yaxshilikka yo'yardi.

Shu sababli Fors podshohlari har yili Navro'zda foydali va qutlug' bo'lgani uchun arpadan bahramand bo'lishni istardilar.



Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi 12 - o'rta maktabning 8 - «A» sinf o'quvchisi Maftuna Jumanazarova Navro'zoyning siymosini shunday tasavvur qilarkan.

## ISTIQLOLIM QILAR HIMOYA

Navro'zginam, buncha go'zalsan,  
Ta'rifingga topolmayman so'z.  
Xayolimni qilib parishon,  
Jamolingni qilasan ko'z-ko'z.

Sen haqingda o'ylayman uzoq,  
Yo'llaringga qo'yдилar tuzoq.  
Bizga berdi sabr-qanoat,  
Yana kulib boqdi saodat.

Endi yo'ling abadiy yorug',  
Tushmas senga hech qanday soya.

Seni asrab, avaylar xalqim,  
Istiqlolim qilar himoya.

Seni qo'llab-quvvatlaydigan,  
Yosh avlod bor - buyuk kelajak.  
Bobolardan meros udumlar,  
Endi mangu davom etajak.

Kabutardek parvozing ko'rib,  
Porlab turar quvonchdan ko'zim.  
Shabbodada yelar ovozing,  
Pok niyatli go'zal NAVRO'ZIM!

Mastura JO'RAYEVA,

Namangan viloyati, Chortoq tumanidagi

19 - umumta'lim maktabining

7 - «A» sinf o'quvchisi.

Dilfuza SHOKIRJON qizi,  
«Kompyuter texnologiyalari»

akademik litseyining 2-bosqich o'quvchisi:

Qishning ayozli kunlaridan bezigan ko'ngillar bahorning farahbaxsh onlaridagi ko'klamiy ifordan bahra olmoqda. Ayni shunday kunlarda kishilar qalbida ezgu umidlar uyg'otib Navro'zi olam ham kirib keldi.

Navro'z sharq xalqlarining mushtarak, hayotbaxsh qadimiy bayramidir.

Uning qachon paydo bo'lgani xususida turli mulohazalar bildirilgan.

Bahor va mehnat bayramining paydo bo'lishi haqidagi tarixiy ma'lumotlar davrlar o'tishi bilan turli o'zgarishlarga uchrab, afsona-yu rivoyatlar qobig'iga o'ralgan holda bizning kunlarga yetib kelgan. Ana shunday afsonalarning aksariyati Navro'zi olamning vujudga kelishini afsonaviy Jamshid nomi bilan bog'laydilar. Quyida keltirmoqchi bo'lgan afsonamiz shular jumlasidandir.

Aytishlaricha, kunlarning birida Jamshid Mozandaron o'rmonida tovushqon ovlab yurgan ekan. Ittifoqo bir ilonni ko'rib qolib, o'sha zahotiyog' unga qarata o'q otibdi. Ilon bir qoyatoshning ostidagi kavakka kirib, ko'zdan g'oyib bo'libdi. Jamshidning komonidan uzilgan o'q esa toshga tegib, undan uchqun chiqibdi. Uchqunlardan biri tosh yonidagi quruq xas-cho'plarning ustiga tushib yona boshlabdi. Odamlar shu damgacha olov nimaligini bilishmas ekan. Shu bois o'tni ko'rgan hamono bu mo'jizadan lol qolib, darhol unga sajda qilidilar. Shu-shu odamlar olovni muqaddas bilib, uni o'chirmaslikka harakat qilishibdi. Jamshid olovni kashf etgan kunni esa yangi kun, ya'ni, Navro'z sifatida bayram qiladigan bo'lishibdi.

## QADIMDAN QOLGAN AFSONALAR

Hozirgacha saqlanib qolgan qo'rni o'chirmaslik uchun kul ostiga ko'mib

qo'yish odati uni qayta yondirish vositalari yo'qligi yo uni iqtisod qilish uchun bo'lgan harakat emas, balki ana shu qadimiy tasavvurning qoldig'idir.

Navro'z haqidagi qadimiy turk afsonalarida esa bu umumxalq bayramining paydo bo'lishi ajdodlarimizning bahor fasli va ko'klamgi dala yumushlari boshlanishiga aloqador udumlarga bog'lanadi. Turk olimi Abduxoliq Joy tomonidan ommalashtirilgan bir afsonada aytilishicha, butun ro'yi zaminni suv bosib, to'fon bo'lganida Nuh payg'ambar har turli jonli jonzotdan bir juftdan olib, kemasida suzib yurgan ekan. Bir kuni u yer yuzida quruqlik bor-yo'qligini bilib kelish uchun qaldirg'ochni uchirib yuboribdi. Bir mahal haligi qaldirg'och tumshug'ida bir, giyohni ko'tarib uchib kelibdi. Giyoh shu yaqin orada yer borligini, u yerga esa ko'klam kelganini bildirardi. Nuh qaldirg'och ko'rsatgan tomonga qarab suzib boribdi-da, suv o'rtasidagi zaminni ko'ribdi. Kemasidagi barcha jonzotlar yerga tushib, to'fon azobidan qutulibdilar. Yer yuziga tushgan odamlar o'sha kunni «Yangi kun», ya'ni, «Navro'z» (nav - yangi, ro'z - kun) deb bayram qilishga odatlanibdilar.

Mazkur afsona Navro'z haqiqiy bahor bayrami ekanligidan dalolat beradi. Zero, Nuh qaldirg'ochni uchirgani bejiz emas, chunki u bahorning elchisi, uyimizni nurga, dalalarimizni gulga, qalbimizni shaloladek jo'shqin tuyg'ularga to'ldiradigan ko'klam darakchisidir. Ajdodlarimiz qish bilan bahor almashishi, sovuq kunlar o'tib, rohatijon fasl ko'klam kelishini hasharotlardan tortib, dov-daraxtlargacha bari uyg'onadigan davrni o'ziga tana qilib kelishgan.

BU - NAVRO'Z AYYOMIDIR!

Jizzax viloyati, Jizzax shahridagi  
21-maktabning 8-sinf o'quvchisi  
Go'zal SAG'DULLAYEVA chizgan  
rasmimi «Bahoroy» deb nomladi.



Muqaddas Niyozmetova – poytaxtimizning Sirg'ali tumanidagi 269-o'rtta maktabda qariyb o'n ikki yildan buyon boshlang'ich sinf o'quvchilariga saboq berib kelmoqda. Bolajonlarning ko'ngliga yo'l topa olgan muallima har bayramda maktab sahnasiga o'z shogirdlari bilan fayz kiritadi. Bolalar bayramona kiyinib she'r yodlaydilar, raqsga tushadilar, o'z mahoratlarini namoyish etib, iqtidorlari bahosini oladilar. Yaqinda ustoz rahbarlik qilayotgan 3-«B» sinf o'quvchilari «Sen bahorni sog'inmadingmu?» deb nomlangan sahna ko'rinishini maktab o'qituvchilari va o'quvchilariga, taklif qilingan bolalar shoir va yozuvchilariga e'lon qildilar. Bu dastur tomoshabinlarga g'oyada manzur bo'ldi. Biz o'quvchilar ijro etgan ayrim ko'rinishlar (qizlar reklama qilib bergan shirinliklar, qo'shiq kliplari)ni qisqartirib, hukmingizga havola qilayapmiz. Sizning maktabingizda ham o'ziga xos ana shunday tantanalar o'tkazilsa, beiz qolmasligi uchun gazetamizga yuboring. Biz ularni e'lon qilamiz. Boshqa tengdoshlaringiz ham ulardan andoza olib, o'z dillarini xushnud etishsa, ayni muddaoimizdir.



# “SENGA BAHORNI SOG'INMADINGMU?”

Yashnab ketdi  
hammayoq,  
Qizlar kuldi-yo.  
Gullar, mening  
gullarim,  
Gulga to'lar yo'llarim.  
«Chaman-chaman  
bog'imda» qo'shig'ini  
hamma ijro etadi.

Buvimning aytishicha,  
Armon-u quvonchiman.  
Katta bo'lsam albatta,  
Shifoxona ochaman.  
**2-qiz:**  
Mening ismim Shohsanam,  
Oyjonim erkasi.  
Hamma ishim sarishta,  
Men oilam erkasi.

Assalomu alaykum.  
Mo'minova Munisa,  
Ahmadjonning qiziman.  
Kichik oilamizning,  
Porlagan yulduziman.  
Dadam, oyim erkalab,  
«Kenjamiz» deb suyushar.  
Qizli uyda har doim,  
farishta bor deyishar.  
Ona tilim sevaman,  
Muallim bo'lsam deyman.  
Bilimli, zukko bo'lib,  
Kamolga to'lsam, deyman.

– Qizlarimizni 1-shart bo'yicha baholagunlariga qadar sinfimiz yigitlari o'z tabriklarini taqdim etadilar.

Farzand iqbolidan so'ylagan ayol.  
O'zining oromi, tinchligi qolib,  
O'zgar baxtini o'ylagan ayol.  
Birgalikda «Sen muqaddassan ayol»  
qo'shig'ini kuylashadi.  
Ishtirokchi qizlar atlas ko'ylak kiyib  
oladilar.  
II-shart. Bahoriy baxru bayt.  
Bunda ishtirokchi qizlar ketma-ket

3-«B» sinf o'quvchilari «Binafsha» guruhi ijro etgan «Kamolot» qo'shig'i bilan sahnaga kirib kelishadi.

**Boshlovchi:**  
– Assalomu alaykum qadrlil bayram qatnashchilari, muhtaram mehmonlar, munis onaxonlar! O'lkamizda bahor nafasi kezib yurgan ayni damlarda hamyurtlarimiz kayfiyatida ham o'zgacha ko'tarinkilik. Yosh-u qari yasharish va yangilanish, fasllar kelinchagi bo'lmish Bahoroyini allanechuk intilqik bilan kutishadi.

Siz azizlarni bahoringiz, yangi kuningiz bo'lmish Navro'zingiz bilan muborakbod etish maqsadida maktabimizning 3-«B» sinf o'quvchilari «Sen bahorni sog'inmadingmu?» nomli bayram dasturi hamda «Balli qizlar!» bellashuvini tayyorlaganlar. Marhamat, tinglab tomosha qiling!

«Bahor vals» yangraydi, 6 ta o'g'il bola va 6 ta qiz raqs ijro etadilar.

**1-o'quvchi:**  
Salom senga bahor ayyomi,  
Salom senga Navro'zi olam.  
Senga olqish, alyorlar aytar,  
Bugun har bir dili pok odam.  
**2-o'quvchi:**  
Maysa boshin ko'tardi yerdan,  
Gulbahordan bermoqda darak.  
Momlar-u onaxonlar jam,  
Doshqozonda qaynar sumalak.

**Boshlovchi:**  
– Aziz bolajonlar, bayramimizga Bahoroy ham tashrif buyurganlar, qani, birgalikda uni kutib olaylik-chi.

**BAHORROY:**  
Men bahorman, gullarim bilan,  
Iliq quyosh nurlarim bilan.  
Kirib keldim, aziz bolalar,  
Olib keldim gul-u lolalar.

Meni derlar go'zal bahoroy,  
Yetib keldim shoshib sizlarga.  
Jon kiritdim, iliqlik bilan,  
Maysalar-u gul, ildizlarga.

6 nafar qizlar ijrosida «Gullar» qo'shig'iga raqs.

**1-o'quvchi:**  
Keldi bahor, keldi ko'klam,  
Bizlar bahor elchisi.  
Bizni bahor boshlab keldi,  
Navro'z bahor kuychisi.  
**2-o'quvchi:**  
Ey, Vatanim bahori,  
Ifor sochib kulasan.  
Sen pushti va zangori,  
Gullar bilan to'lasan.



**BAHORROY:**  
– Bolajonlar, hozir sizlarga bir nechta topishmoq aytaman, topasizlarmi?  
**Bolalar:** (baravariga) – Ha!  
– Qirda yoydim qizil gilam  
Ko'rinadi go'zal biram.  
**Hamma birgalikda:**  
– Lolaqizg'aldoq.  
**1-o'quvchi:**  
Dalalardir makonim,  
Yong'irdir osh-u nonim,  
Bahor qandayin yaxshi,  
Qizil gullarning naqshi.  
**2-o'quvchi:**  
Kuldi lolaqizg'aldoq,  
Bahor keldi yo.

## BAHORROY:

Yerdan asta unadi,  
Ilk bahorda kuladi.  
**Hamma:**  
– Boy-che-chak.

**1-o'quvchi:**  
Ochildimi boychechak,  
Endi har yon gul demak.  
Chunki bahor elchisi,  
Shu mittigul boychechak.

**2-o'quvchi:**  
Binafshaxon, binafsha,  
Kulishlaring chiroyli.  
Bog'imizda ochilib,  
Turishlaring chiroyli.  
«Boychechak qo'shig'ini»  
hamma birga kuylaydi.  
Bahordan berdi darak,  
Oson bo'lmadi kutmak.  
Senga talpingach yurak,  
Sevgan gulim boychechak.

Boychechak, boychechak,  
Sevgan gulim boychechak.

Boshlab berding bahorni,  
Toza kumush nahorni.  
Olibsan ixtiyorni,  
Seplaringni yoy chechak.

Boychechak, boychechak,  
Seplaringni yoy chechak.

**Boshlovchi:**  
– Bahoroy, bugun bizning mehmonimiz bo'ling. Siz uchun «Balli qizlar!» bellashuvini boshlaymiz.  
**Balli, qizlar!**  
I-shartimizni «Tanishuv» deb nomladik.  
Bunda qizlarimiz o'zlari haqida she'riy ma'lumot beradilar.

**1-qiz:**  
Men Rixsitillayeva Feruza Murodjon qizi,  
Onamning porloq yulduzi.  
Kiyim kiysam yarashar,  
Havas bilan qarashar.

**3-qiz:**  
Assalomu alaykum,  
Mehmonlar-u mezboblar.  
Shahnoza Botirjon qiziman.  
Kumush qish faslining,  
O'q otar burji ostida,  
Ziyoli oilada dunyoga keldim.  
Orzularim so'rasangiz  
Bo'lmoqchiman, qizlarim.  
To'xtang, esdan qolgan  
Ustozimning ta'limi.  
O'qituvchilar  
malikasi-Muradxon qizim.  
«Bolajonim» ayatlar,  
Barcha o'g'il-qizlarim.  
Tadbir, bayram, kechmada  
Chetlab o'tmas bizlarim.  
Qani, hay'at a'zolari,  
Qo'shiling davramizga,  
Balli qizlar sururin  
Sirin ochamiz sizga.

**5-qiz:**  
Tanishtiray o'zimni,  
Tilang mening so'zimni.  
Ismim meni Oyaxton,  
Qoshlarim kamonsimon.  
Kelajakda bo'laman,  
Men albatta tarjimon.  
Zunrad bahor kelganda,  
Ham gulga to'lganda,  
Sareli oyi boshida,  
Lang sahar quyoshida,  
Dunyoga kelib qoldim,  
Porloq burjini oldim.

**6-qiz:**  
Mening ismim Zilola,  
Misli qirdagi lola.  
Tavallud topdim yozda,  
Afsuski, fursat oz-da,  
Adajonim erkasi,



bahor fasli haqida to'rtlik aytib, keyingi ishtirokchiga navbaini beradilar. Shu tarzda o'yin davom etib, oxirida qolgan bir ishtirokchi g'olib hisoblanadi.

**2-o'quvchi:**  
Ayol hayotning go'zal qo'shig'i,  
Mehru muruvvatning go'zal qo'shig'i.  
Kuylab o'tar ishqning necha oshig'i,  
Quvonch-u hasrati, visol ko'z yoshi.

**3-o'quvchi:**  
Ayol dunyo tebratar,  
Shamol daraxt silkitar.  
Dovul inson qo'rqitar,  
Ona ko'ngil tinchitar.

**4-o'quvchi:**  
Ayol – umid demak,  
Ertangi kundan.  
Dunyoda topilmas,  
Go'zalroq undan.

**5-o'quvchi:**  
Bizlarni jondan suyub, oq yuvib, oq tarovchi,  
Oilamiz tayanchi, onadir bu, onadir.

**6-o'quvchi:**  
Ta'zim qilsak arziydi,  
Ishchan, pok xayolisiz.  
Boshingiz tik ko'taring,  
Siz o'zbek ayolisiz.

**7-o'quvchi:**  
Dunyoning beshigin tebratgan ayol,

**1-o'quvchi:**  
Bahor keldi elimizga,  
Ko'm-ko'k bo'ldi bog'-dala.  
Sevinch to'ldi dilimizga,  
Terib keldik gul-lola.

**2-o'quvchi:**  
Bahor chog'i osmonda,  
Chaqmoqlar chaqar goho.  
Gumburlab momaqaldiroq,  
Berar xunuk bir sado.

**3-o'quvchi:**  
Kelganida navbahor,  
Suv bo'ladi beg'ubor.  
Ariq to'lib oqadi,  
Dala qirga yoqadi.

**4-o'quvchi:**  
Qish qorini supurdi,  
Quyosh nurin ufurdi.  
Yalpiz hidi gupurdi,  
Bahor kelgach.

**5-o'quvchi:**  
Qaldirg'ochim o'zinning,  
Boshlab kelding bahorni.

Shu sabab hamma senga,  
Mehr bilan boqarmu?

6 nafar qizlar ishtirokida «Do'ppi tikdim» raqsi.  
III - shart. Bu shartda qizlar boychechak haqida laparlar aytishlari kerak.

**1-ishtirokchi:**  
Boychechagim boylandi,  
Qalbinizga joylandi.  
Chiqib salom bermasang,  
Quvonchlarim vayronidir.

**2-ishtirokchi:**  
Boychechagim boyiron,  
Gullar ichra ayron.  
Ayroningdan ichmayman,  
Bahorimdan kechmayman.

**3-ishtirokchi:**  
Boychechagim asldir,  
Bahor go'zal fasldir.  
Kelsa ko'rkam Navro'zi,  
Sumalaklar asldir.

**4-ishtirokchi:**  
Boychechagim bolasi,  
Qulog'ida donasi.  
Donasin olay desam,  
Yugurib chiqdi onasi.

**5-ishtirokchi:**  
Boychechagim boychechak,  
Terdim to'la bir etak.  
Boychechagim asldir,  
Bahor faslin vasfidir.

**6-ishtirokchi:**  
Boychechagim boylandi,  
Ko'chama-ko'cha aylandi.  
Boychechak, ko'k somsalar,  
Cho'ntaklarga joylandi.


Shartimiz shu tarzda davom etadi.  
IV-shartda qizlarimiz 5 daqiqa davomida ko'k somsa tugishlari kerak. Hay'at a'zosi ularni kiyinishi, chaqqonligi, ozodaligiga alohida razm soladi.

Tanaffusda «Halinchak» qo'shig'i.  
Ishtirokchi qizlar ijrosida «Qizlar, qizlar» turkcha raqs.

V-shartda ishtirokchilar dugonalarning sochlarini chiroyli qilib turmaklashlari talab qilinadi.

VI-shartda o'quvchilar reklama namoyish qiladilar.  
So'ngra, eng hayajonli damlar boshlanadi. Tahrir hay'ati a'zolari g'oliblarni aniqlab, sovg'alar ulashadilar va ularga eng zukko qiz, eng chaqqon qiz, eng iboli qiz, eng nazokati qiz, eng bilimdon qiz, eng go'zal qiz kabi yozuvlar tushirilgan, oldindan chiroyli qilib bezatilgan bosh kiyimlari – toj kiydirib qo'yadilar. Tomoshabinlar guldiros qarsaklar va gullar bilan olqishlashadi.

Ssenariy muallifi Muqaddas NIYOZMETOVA.



## TOQQA KIM CHIQUADI?

Alpinistlar bilan baland tog'larga sayohatga chiqishni kim ham xohlamaydi, deysiz? Ma'lum bo'lishicha, ayni paytda 600 nafarga yaqin hamyurtimiz sportning alpinizm va qoyani zabt etish turi bilan shug'ullanar ekanlar. Bulardan 200 nafardan ortig'i siz tengi o'g'il va qizlar ekan.

### BU QANDAY SPORT?

Alpinizm – jamoaviy sport turi bo'lib, baland-baland tog'lar cho'qqisini zabt etishga yo'naltiriladi.

O'zbekistonlik alpinistlar sobiq Ittifoq davrida ham chempionlikni qo'ldan boy bermaganlar. 1991-yilda o'tkazilgan alpinizm bo'yicha so'nggi sobiq Ittifoq chempionatida ham aynan bizning terma jamoa g'olib chiqqanligi bunga dalildir.

Hozir ham mamlakatimizda ko'plab chempionat va kubok musobaqalari tashkil etiladi. Shuningdek, sportchilarimiz Markaziy Osiyo chempionati va Kubogi hamda Yevro Osiyo chempionatlarida qatnashishlari mumkin.

Alpinizm nafaqat sport, balki boshqa sohalarida ham asqotadi. Alpinistlar mashaqqatlarga dosh berib, tog'ning eng yuqori nuqtasiga chiqa olishadi. Ularning bu mahoratlari geodeziya, geologiya sohalarida, shuningdek, tog'lardagi boshqa ilmiy izlanishlarda, energetikada, qurilish va ta'mirlash sohalarida, yo'llar chizmasini olish va qurish ishlarida ham juda qo'l keladi. Shuning uchun ko'pgina alpinistlar yuqoridagi mehnat korxonalarida ham ishlashadi.

### ALPINISTLAR "EVEREST"DA

Jonajon O'zbekistonimiz istiqbolga erishgach, barcha sohada bo'lgani kabi bu sohada ham yutuqlar salmog'i ortib bordi. 1998-yilda 11 nafar alpinistlarimiz sayyoramizning eng baland «Everest» cho'qqisiga ko'tarildilar. Bu cho'qqining balandligi naq 8848 metrdir. Vatanimiz bayrog'ini «Everest»ga qadagan Anatoliy Shabanov boshliq terma jamoamiz o'shanda quyidagi sportchilardan tashkil topgandi:

Ekspeditsiya rahbari – Anatoliy Shabanov O'zbekiston alpinistlar va qoya zabtkorlari federatsiyasi bosh kotibi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy, Rustam Rajabov, Sergey Sokolov, Svetlana Baskakova, Andrey Fyodorov, Marat Usayev, Oleg Grigoryev, Ilyos Tuxvatulin, O'zbekiston terma jamoasining a'zosi Andrey Zaikin, Aleksey Dokukin, Xanif Balmogombetov, Romans Mas. Ularning shu kungi qahramonliklari chindan

ham jasorat edi.

### QIROLNING MUKOFOTI

Dunyo tog'larining eng baland nuqtasiga ko'tarilishda sportchilarimiz doimo eng yaxshi e'tiroflarga loyiq topiladi. Jumladan, 2003-yil 23-may sanasida Nepal davlati Qirolgi Giyanendr Bir Bikram Shoh Dev jahonning eng sara alpinistlariga xizmatlari uchun sharafli oltin medallarni topshirdi. Anatoliy Shabanov boshliq 11 nafar vatandoshlarimizga ham bu kabi medallar bir necha bor taqdim etilgan.

Butunjahon alpinistlar va qoya zabtkorlari Assotsiatsiyasi ta'xis etgan «Oltin muzyorar» sovrini soha sportchilarining eng nufuzli mukofotlaridan sanaladi. Mukofot sohibi har yili Fransiyada taqdirlanadi.

«Oltin karabin» sovrini esa Xalqaro alpinistlar Assotsiatsiyasi tomonidan ta'xis etilgan. Vatandoshimiz Ilyos Tuxvatulinning harakatlari 2002-yilda aynan «Oltin karabin»ga loyiq topilgandi.

2004-yilda esa Ilyos Tuxvatulin xalqaro ekspeditsiya safida birinchilardan bo'lib «Everest»ning shimoliy tarafidan cho'qqiga ko'tarildi. Uning bu jasorati munosib baholanib, «Mehnat shuhrati» ordeni berildi.

2005-yil Rustam Rajabov hamda Aleksey Dokukin Shimoliy Amerika tog'larining eng baland cho'qqisi – Mak-Kinlining 6193 metrlik balandligini ishg'ol etdilar.

Yoshlarimiz ham «akalari» an'alarini davom ettirishda bo'sh kelmayptilar. Masalan, 2003-2005-yillarda o'tgan Markaziy Osiyo kubogi musobaqalarida vakillarimizning mavjud 54 ta medaldan 29 tasini qo'lga kiritishgani ham so'zimiz isbotidir. Respublika alpinizm va qoya zabtkorligiga maxsus ixtisoslashgan olimpiya zahiralari bolalar va o'smirlar sport maktabi (direktori Anatoliy Shabanov) yuqoridagi yutuqlarga «asosiy beshik» vazifasini o'taydi. Ma'lumotlarga ko'ra, shu kunga qadar maktab o'quvchilaridan 44 nafari terma jamoamizning asosiy tarkibidan joy olgan bo'lishsa, 26 nafari nomzodlar safiga kirishgan.

Endi biroq qoyani zabt etish turi haqida to'xtalsak. Qoyani zabt etish bilan asosan yoshlar shug'ullanishadi. Ya'ni, bo'lajak alpinistlar. Musobaqalar ikki mavsumga bo'lingan holda o'tadi. Yozgi musobaqalar aprel-oktabr oylarida qoyalarda o'tsa, qishki bahslar noyabr-mart oylarida maxsus yasalgan «trenajyor-qoyalarda» zallarda o'tadi. Qoyani zabt etish va alpinizm bilan shug'ullangan o'g'il-qizlar qalbida Ona tabiatga, purviqor tog'larga, go'zal Vatanga mehr-muhabbat uyg'onadi. Yoshlar tartib-intizomga, mukammallikka, mashaqqatlarga chidamli bo'lishga o'rganadilar.

Bolajonlar, alpinizm olamiga qilgan sayohatimiz sizlarga yoqqan bo'lsa, albatta bizga yozib yuboring. Sizni yana nimalar qiziqtiradi? Savollaringizni kutib qolamiz.

Ma'mura MADRAHIMOVA.

Tahririyatimizga jussasi kichikkina, ammo g'ayrat-u shijoati xatti-harakatlaridan sezilib turgan bir ayol kirib keldi. «Opamiz shaharni yaxshi bilmaydilar. Shuning uchun o'zim ularni bu yerga boshlab keldim», dedi u kishiga hamroh bo'lib kelgan yigit. Keyin bilsak, aslida Farg'ona viloyati, Beshariq tumanining Pastki Yangi Qo'rg'on qishlog'ida yashovchi G'oyipova Fotima opamiz yaxshigina she'rlar yozarkanlar. Ajablanarlisi shundaki, bu she'rlarni ular beixtiyor yozarkanlar.

«1988-yili 10-sinfni tamomladim. Baxtsiz hodisaga uchrab, beda'vo dardga duchor bo'ldim. Oyog'im biroz oqsaydigan, ko'zim xira ko'radigan bo'lib qoldi. Yana kekirish dardiga ham chalilib qoldim. Bu dardim bir huruj qilganda bir-ikki kunlab, ba'zan haftalab azob beradi. Og'riqning zo'ridan hatto o'limimga ham rozi bo'lib ketaman. Shunday kezlarda g'oyibdan: «Sen she'r yozasan, shunda kasaling tuzaladi», degan ovoz keladi. Axir men she'r yozishni bilmasam, o'zim dalada ishlab yuradigan oddiygina bir qishloq qizi bo'lsam... Xayolimdan shunday o'ylar kechishi hamonoq dardim yanada kuchayadi. Majburan qo'limga qalam olib, qog'oz qoralay boshlayman. Shunda tanamdagi og'riq biroz susaygandek bo'ladi...»

«1988-yili 10-sinfni tamomladim. Baxtsiz hodisaga uchrab, beda'vo dardga duchor bo'ldim. Oyog'im biroz oqsaydigan, ko'zim xira ko'radigan bo'lib qoldi. Yana kekirish dardiga ham chalilib qoldim. Bu dardim bir huruj qilganda bir-ikki kunlab, ba'zan haftalab azob beradi. Og'riqning zo'ridan hatto o'limimga ham rozi bo'lib ketaman. Shunday kezlarda g'oyibdan: «Sen she'r yozasan, shunda kasaling tuzaladi», degan ovoz keladi. Axir men she'r yozishni bilmasam, o'zim dalada ishlab yuradigan oddiygina bir qishloq qizi bo'lsam... Xayolimdan shunday o'ylar kechishi hamonoq dardim yanada kuchayadi. Majburan qo'limga qalam olib, qog'oz qoralay boshlayman. Shunda tanamdagi og'riq biroz susaygandek bo'ladi...»

«She'rlarimdan bolalarboplarini sizlarga olib kelgandim, ko'rasizlarmi?», dedilar biroq istihola bilan.

– She'rlaringiz durust, dedik Fotima opaning ko'ngillarini ko'tarib. Biroq, hozir she'rlar juda ko'p-da. Iloji bo'lsa, homiylar, shifokorlar haqida maqola yozib keling...

– Fotima opa mana olti yildirki, bir no'giron insonga homiylik qilib kelyaptilar, deya suhbatimizga qo'shildi u kishining hamrohi. – Homiy qidirib uzoqqa bormay, o'zlari haqida maqola yozsangiz ham arziydi. Toshkentning Cho'ponota mahallasida baxtsiz tasodif tufayli ko'zlari ojiz bo'lib qolgan Hojiakbar Mirsamatov degan bir otaxon yashaydilar. U kishining yurtimiz ravnaqiga qo'shgan hissalar haqida yozadigan bo'lsak, yaxshigina hujjatli film bo'ladi. Men ularning birgina jihatlarini aytib o'tmoqchiman: Otaxon mohir sportchi bo'lib, 50-yillarda yurtimizda sportning sambo turiga asos solgan insonlardan biri bo'lganlar. Ikki yillik maxsus kurs ochib, ham xuquqdan, ham sambodan saboq berganlar. Keyinchalik baxtsiz hodisa tufayli yordamga muhtoj bo'lib qolibdilar. Hozirda olis Farg'onadan kelgan

## SPORTCHIGA HOMIY TOPILDI

Fotima opa xuddi kelinlaridek otaxonning xizmatidalar. Osh-ovqat, kir-chir, bozor-o'char ishlaridan qo'llari bo'shadi

deguncha, ketmon ko'tarib, tomorqaga otlanadilar. Tunov kuni kattagina hovlini yarim kunda chopib qo'rganlarini ko'rib, bu insonda haqiqatan ham ilohiy bir kuch bormikina, deb qo'ydim o'zimga-o'zim...

Odatda, kunduzi ko'p ishlagan odam kechasi qotib uxlaydi. Fotima opa esa tunni tongga ulab, beixtiyor she'rlar yozib chiqadi. Nafaqat o'zbek, balki ingliz hamda arab tilida yozilgan she'rlarini o'qib, yoqa ushlaysan kishi.

– Bularning tarjimasini ham bilasizmi, - deb so'rayman Fotima opadan.

– Qaniydi bilsam, - deyдилar opa siniq jilmayib. - O'qishga o'qiyman, yozaveraman-u, lekin mazmunini o'zim tushunmayman-da. Ularni tushunib olishimga yana biroz muddat bor ekan...

Suhbatdoshlarimiz gaplariga ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilolmay turgandik, opa qog'oz bilan qalam so'rab qoldilar va ingliz tilida allaqanday satrlarni yoza boshladilar. Talaffuzlarini eshitib, to'g'risi, hayratlandik.

Quyida e'tiboringizga u kishining siz bolajonlarga atab yozgan she'rlaridan birini havola qilyapmiz:

### YO'LDAGI CHIZIQ

Bolalar, qarang qiziq,  
Yo'lda bor emish chiziq.  
Anora o'yga toldi,  
So'ngra uyiga bordi.

Sakkiz yoshli Anora,  
Kitobin ochib ko'rdi.  
Chizilgan edi yo'l-yo'l,  
Unga sherik svetofor.

Javobini topdi u,  
Yo'l qoidasi ekan bu.

Fotima G'OYIPOVA.

POSBONCHA.




*Bir shingil bog'dan, bir shingil tog'dan...*

## BUYUK IPAK YO'LI

Ota-bobalarimiz qadimdan savdo-sotiq bilan shug'ullanganligi hammamizga ma'lum. Yurtimizda qadimgi gilamchilik, ipakchilik, misgarchilik, temirchilik, zargarlik keng rivojlangan. Shu sababli yurtimizdan eng katta savdo yo'li «Buyuk Ipak yo'li» o'tgan. Bu yo'l Osiyoning sharqi Sariq dengizdan Sharqiy Yevropagacha cho'zilgan. Miloddan avvalgi II-asrda vujudga kelgan yo'l 12 ming chaqirim masofani tashkil etadi. Yo'l asosan Xitoy, Hindiston, Movarounnahr, Xuroson, Eron, Arabiston, Misr, Sharqiy Yevropa davlatlaridan o'tgan va ularni bir-biri bilan bog'lab turadi.

Bu yo'l ilk bora nemis tarixchisi K.Rixtgofer tomonidan 1877-yilda «Ipak yo'li» atamasi bilan tarixga kirgan. Bunday nomlanishning sababi, yo'ldan ipak gazlamalar ko'plab olib o'tilganidir.

**Shohruh O'ROLOV,**  
Jizzax viloyati, Zarbdor tumanidagi 2-maxsus maktab  
internatining 9-«V» sinf o'quvchisi.



### YO'L TOP!

Tipratikanga qo'ziqorinlarga yetib olishiga eng to'g'ri va oson yo'lni ko'rsating.

**Tuzuvchilar:**

**Murodjon ABDULLAYEV,**  
**Jamshid TURG'UNOV,**  
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi  
17-maktabning 7-«A» sinf o'quvchilari.

### BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

O'tgan sonda berilgan «Navro'z» chaynkrossvordining javoblari:

1. Mamnun. 2. Nok. 3. Ko'chat. 4. Turna. 5. Ajam. 6. Ko'klam. 7. Mushak. 8. Ko'mak. 9. Kurtak. 10. Koinot. 11. Tilak. 12. Ko'pkari. 13. Ipak. 14. Arpa. 15. Alik. 16. Kurash. 17. Shiypon. 18. «Nola». 19. Savod. 20. Danak. 21. Kuch. 22. Chigit. 23. Tovus. 24. Tong. 25. Gul. 26. Latifa. 27. Amal. 28. Lazzat.

## GEOMETRIYA FANIDAN TEST SAVOLLARI

1. Geometriya so'zining ma'nosi?

- A) «geo» - yer, «metriya» - o'lchash;  
B) «geo» - suv, «metriya» - o'lchash;  
S) «geo» - hajm, «metriya» - o'lchash.

2. Eng sodda geometrik shakl?

- A) uchburchak;  
B) kesma;  
S) nuqta.

3. Burchak o'lchovchi moslama?

- A) sirkul;  
B) transportyor;  
S) chizg'ich.

4. Aylana qismlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) radius, kesma, vatar;  
B) radius, diametr, vatar;  
S) vatar, nuqta, diametr.

5. «Bissektrisa» so'zining ma'nosi?

- A) teng ikkiga bo'luvchi;  
B) gradus o'lchovchi;  
S) balandlik.

6. Burchak 180° bo'lsa, qanday burchak deyiladi?


- A) o'tkir burchak;  
B) o'tmas burchak;  
S) yoyiq burchak.

**Tuzuvchi: Abdulaziz ABDUMUTALOV,**

Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 12-maktab o'quvchisi.


## TOPISHMOQLAR

Kezib el-u yurti har dam,  
Dengizlardan oshaman ham.  
Juda aniq gapiraman,  
Til-zabonim bo'lmasa ham.



Egari bor chavandozsiz,  
Ko'prigida yurmas odam.  
O'zi o'tkir, ammo uchsiz,  
Nima ekan, o'yla sen ham.

Savol bilan suv har vaqt,  
Mening uchun kuch-quvvat.  
Oziq berib hammaga,  
O'zim yemayman ovqat.



Jajji, mitti bir odam,  
Qizg'ish libos ustida.  
Bilsang uning makoni,  
Qir-u o'rmon ichida.



Po'lat otning quyrug'i zig'ir poyadan.

Yurib doim u yoq, bu yoq,  
Bo'sag'adan ketmas yiroq.




Uy ovqatga to'ladir,  
Eshigi berk turadir.

Oyog'i bor, yurmaydi,  
Qanoti bor uchmaydi.  
Doim hordiq istaydi,  
Dam olishga qistaydi.

**Tuzuvchi: Azamat QO'NISHEV,**  
Jizzax viloyati, Forish tumanidagi 30-maktab  
internatining 8-«B» sinf o'quvchisi.

## «MOZAIKA» O'YNAYSIZMI?



Hammangiz «Mozaika» o'yinini yaxshi bilasizlar va sevib o'ynaysizlar. Olimlarning fikricha, bu o'yin aqliy qobiliyatni yaxshilash bilan birga xotirani ham mustahkamlar ekan. Bu o'yinni o'zingiz uyda tayyorlashga harakat qilib ko'rganmisiz? Yo'q, deysizmi? Axir bu juda oson va oddiy-ku. Men sizlarga do'stlaringiz, uka va singillaringiz uchun «Mozaika» o'yinini tayyorlashni o'rgataman. Buning uchun ikkita bir xil karton qog'oz oling va unga sevimli multfilmingiz qahramonini yoki meva va sabzavotlarning rasmini bir xil qilib chizib, chiroyli qilib bo'yab chiqing. Bitta kartonga «Namuna uchun» deb yozib qo'ying. Ikkinchi kartonni esa o'zingiz istagan shaklda, lekin yig'ib, tekislash uchun oson qilib qaychi yordamida bo'laklarga ajrating. «Mozaika» tayyor. Karton qog'ozda tez eskirib, yirtilib ketmasligi uchun qirqishdan avval qalin oq skotch yordamida ustini qoplab oling. Shunda tez kirlanib, chirib ketmaydi. Bu o'yinni uyda o'ynashingiz va do'stlaringizga bayram yoki tug'ilgan kunlarida sovg'a qilishingiz mumkin.

**Mohira ABDUSHUKUROVA,**  
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi  
116 - maktabning 5-sinf o'quvchisi.

## AQL GIYANASTIKASI

Aziza Ochilova asli Jizzaxdan. 1995-yilda tug'ilgan. Hozir u iqtidorli shaxmatchi qizlar sirasiga kiradi. Ammo o'zini shaxmat olamiga kechikib kirganidan juda afsus qiladi. Shaxmat o'ynashni 8 yoshidan emas, barvaqtroq boshlaganida ko'plab bellashuvlarda mag'lubiyatga uchramagan bo'larmidi?..

O'tgan yili Qarshi shahrida tashkillashtirilgan Georgiy A'zamov xotira turnirida 2-o'rinni, Jizzax viloyat birinchiligida 1-pog'onani band etganida ham o'z o'yinidan unchalik ko'ngli to'lmagandi.

Ayni paytda iqtidorli bolalar gimnaziyasida 5-sinfda o'qiyotgan Aziza matematika fanini juda yoqtiradi. Shuningdek, shahardagi BO'SM-da shaxmat sirlarini yanada mukammalroq o'rganib kelmoqda. Uyda opalarini hadeb yutaverganidan, ular Aziza bilan shaxmat o'ynamay qo'yishdi. Shaxmat bo'yicha mutaxassislar uni jizzaxlik shaxmat yulduzi Yulduz Hamroqulovning izdoshi deyishyapti. Yosh shaxmatchi qiz yaqinda oliy liga, ayollar o'rtasidagi O'zbekiston chempionatida 11 imkoniyatdan 8 ochko jamg'arib, faxrli 2-o'rinni egalladi.

Umid qilamizki, Aziza ham Yulduz opasidek o'z ustida tinimsiz ishlab, ulkan yutuqlarga erishadi.

**Xurshida BOYMIRZAYEVA.**



Kattalar, e'tibor bering!

## MAKTABMAS, KARVONSAROY...



Tumanimizdagi 31-maktabning qurilganiga atigi to'rt yil bo'ldi. U hozirgi zamon talabiga to'liq javob bermasa-da, har holda yo'qdan ko'ra bor-da. Mahallamizdagi barcha o'g'il-qizlar shu maktabda o'qishadi. Bu maktab 11 yillik edi. Yangi ochilgan paytlarda o'quvchilar soni juda ko'payib ketdi. Ammo keyinchalik oliy ma'lumotli o'qituvchilarning ozligi bois o'quvchilar soni kamaydi. O'qituvchi yo'qligidan tarix fani

ustozi geografiyadan saboq berayotganiga o'zim guvoh bo'lganman. Maktabning farroshi esa yetakchilik qiladi. Hali kollejni ham tugallamagan o'quvchining bolalarga dars berishini qanday izohlash mumkin? Bu hol shu maskanda tahsil olayotgan o'quvchilarga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi, albatta. Kundan-kunora diskoteka qilishadi. Yuqori sinf o'quvchilari umuman forma kiyishmaydi. Ularning intizomi haqidaku gapirma ham bo'ladi, soat 8 da boshlanadigan darsga 11da bemalol kirib kelaverishadi. Maktab emas, go'yoki karvonsaroy deysiz. O'quvchilar xohlagan darslariga kirishadi, xohlashmasa yo'q. Ularning bu darajaga kelib qolishlariga ayrim o'qituvchilarning beparvoliklari sabab deb o'ylayman. Agar ular shogirdlarini o'z fanlariga qiziqitira olganlarida, biroz qattiqqo'lroq bo'lganlarida, o'quvchilar ham mas'uliyatliroq bo'lisharmidi?!

So'zim so'nggida agar hurmatsizlikka yo'yamasalar, ota-onalarimizga murojaat qilishni istardim:

Aziz ota-onalar, farzandlaringiz taqdiriga befarq bo'lmang. Qayerda, nimalar bilan mashg'ulliklaridan ogoh bo'ling. Chunki ertaga bu loqaydlik, befarqlikning jabrini o'qituvchilar emas, o'zingiz tortasiz-ku.

**Ma'fura JAMOLIDDINOVA,**  
Toshkent viloyati, Zangiota tumani.

## MAQOLA CHIQARISH PUBLIMI?

Aziz «Tong yulduzi» tahririyati xodimlari! Men gazetangizning ashaddiy muxlislaridan biriman. Biz sinfimiz bilan bir necha yil davomida «Gulxan» jurnaliga obuna bo'lib kelganmiz. Mana ikki yildirki, senga obuna bo'lyapmiz. Ammo negadir gazeta vaqtida yetib kelmayapti. Yangi sonlarini bir oydan keyin olgan kunlarimiz ham bo'lgan. Keyinchalik bu gazeta bilan bir yilda ikki martagina «diydor» ko'rishadigan bo'ldik. Tengdoshlarimning ijodidan bahramand bo'lish kech nasib qilganidan juda xafa bo'lib ketaman. Bu masalada kim aybdorligini hali-hanuz bilolmayman. Yana bir gap: meni she'riyatga, umuman adabiyotga qiziqishim baland. Shu tufayli ham maktub yo'llashga juda qiziqardim. Bu haqda bir dugonamga aytsam, u: «Agar she'ringni chiqarmoqehi bo'lsang, tahririyatga borib pul to'lashing kerak bo'ladi», dedi. Ammo gazetaning bir sonida maqola chiqarish pulli emasligi haqida o'qiganim uchun bu gapga ishonmadim. Mening maqsadim — gazeta orqali tengdoshlarimning ijodlaridan bahramand bo'lish. Ular ham mening she'rlarimdan o'qib, baho berishsa degandim...

**Dildora CHORIYEVA,**  
Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi  
13-o'rta maktabning 10-«E» sinf o'quvchisi.

### Tahririyatdan:

Gazetada maqola chiqarish pullik emas. Qolaversa, davlatimiz «Tong yulduzi»ni ham yarim bahosida sizga yetkazib beradi. Shunday ekan, YOZING, YOZILING! Sevimli nashringizga 2006-yil uchun obuna yil bo'yi davom etadi.

## «2» MI, DAKKI?

Bu voqeaning bo'lib o'tganiga ikki oy bo'ldi. Har doim o'qituvchimiz darsga kirganlarida o'sha voqea yodimga tushib ketaveradi.

...Ikkinchi soatimiz tugab, uchinchi soatga qo'ng'iroq chalindi. Sinfga past bo'yli, yoshi elliklardagi bir kishi kirib keldi. Hammamiz turib salom berdik. Ular mehnat ta'limi fanidan yangi o'qituvchi ekanlar. O'qituvchimiz darsni boshlab yubordilar. Ammo oxirgi partada o'tirgan sinfdoshimiz hamon atrofidagilarni chalg'itib, gaplashib o'tirardi. Ustozimizning tanbehiga quloq solmadi. Sabri tugagan o'qituvchimiz uni urib yubordilar.

— Jim o'tirasanmi yo yo'qmi, nega buncha quloqsiz bolasan?! — dedilar baqirib.

— E-e-e, sizning ishingiz bo'lmasin, kim bo'libsiz-ki meni urasiz? Yoshingiz katta bo'lmaganida men ham qarab turmasdim...

Sinfdoshimning bu gaplaridan keyin o'ylanib qoldim. Demak, ustozimiz 25-30 yoshlar bo'lganlarida, sinfdoshim u bilan mushtlashar ekan-da?..

Keyingi paytlarda o'qituvchilarga bo'lgan hurmat pasayib ketayapti, nazarimda. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz?

**Nigora PO'LATOVA, 11-sinf o'quvchisi:** — Bizga talabalar dars berib qolishsa, sinfdoshlarim ularning gaplariga quloq solishmaydi. Bunday bolalar bilan o'qituvchilarimiz «alohida shug'ullanishadi». Katta yoshli o'qituvchilar ularga qo'l ko'tarishsa, gap qaytarishadi. Bunga sababchi, menimcha, o'quvchilarning o'zlari. Chunki ularning ko'pchiligi darsda o'zlarini tutishni bilishmaydi.

**MA'RIFAT opa, o'qituvchi:** — O'quvchilarim sho'xlik qilishsa-da, ularni urmayman. Lekin xulqi yomon o'quvchilarni ota-onalari tarbiyalab qo'yishsa, yomon bo'lmasdi.

**Nozima HASANOVA:** — Qars ikki qo'ldan chiqadi. Shunday ekan, bunday munosabatlarga o'qituvchilar ham, o'quvchilar ham aybdor deb o'ylayman. Bir kuni sinfdoshim o'qituvchimiz bilan baho talashib urishib qolishdi. Shunda sinfdoshim ularni yomon so'zlar bilan haqoratlay boshladi. Menimcha, o'qituvchiga o'quvchidan haqoratli so'zlar eshitish qattiq ta'sir etadi. Nima bo'lganda ham o'qituvchi-o'qituvchi-da. Axir ular bizni bilimli bo'lsin, deyishadi-ku.

**DILBAR opa, o'qituvchi:** — O'quvchilarning beodob bo'lishiga ota-onalar aybdor deb bilaman. Chunki ular arzanda farzandlarini urishgilari kelmaydi. Natijada u bilganini qiladi. Men baribir ularni urmayman. Yaxshisi, «2»lar bilan «siylayman».

Xullas, dars jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Shundagina dars samaradorligi oshib, «ikki»chilar soni kamayadi. Keling, o'qituvchilar «ikki»lar bilan o'quvchilarini «siylashmasin». O'quvchilar esa o'z navbatida, yaxshi xulqlari-yu, mustahkam «besh»lari bilan barchani xursand qilishsin.

**Aziza HAKIMOVA,**  
Toshkent shahri.

Ushbu yulduz...  
**TONG**  
yulduzi

O'zbekiston Respublikasi  
bolalari va  
o'smirlarining gazetasi

**BOSH MUHARRIR:**

*Umida*

**ABDUAZIMOVA**

**TAHRIR HAY'ATI:**

Turobjon JO'RAYEV,

Dilbar OLIMJONOVA,

Botir UBAYDULLAYEV,

Jabbor RAZZOQOV,

Anvar ZOKIROV,

Dilmurod RAHMATILLAYEV,

Dilshoda DADAJONOVA,

Sobirjon SHARIPOV,

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),

Nurxon NAFASOV,

Ergashvoy SARIQOV.

**Gazeta O'zbekiston**  
**Matbuot va axborot**  
**agentligida**

**022-raqam bilan**  
**2003-yil 11-dekabrda**  
**ro'yxatdan o'tgan.**

Noshir

«O'zbekiston»

nashriyat-matbaa

ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyat-matbaa

ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va

chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

**Adadi - 61158**

**Buyurtma N: J 2164**

Dizayner va sahifalovchi:

**Fazliddin**

**SHAYADGAROV.**

Navbatchi:

**Jamila**

**ERDONOVA.**

Rassom:

**Nodira MIRZAYEVA.**

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong\_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-23-81

144-27-25

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-24-45